





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 47 519,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	39 631,1	47 519,9	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	38 912,2	46 788,0	107,3
mahsulotlarga sof soliqlar	718,9	731,9	107,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	38 912,2	46 788,0	107,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 747,7	13 886,9	103,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 697,8	11 070,9	108,8
sanoat	5 447,0	7 383,7	108,4
qurilish	3 250,8	3 687,2	109,5
xizmatlar	17 466,7	21 830,2	109,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 148,5	8 967,2	112,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 852,3	2 444,5	118,7
boshqa xizmat tarmoqlari	8 465,9	10 418,5	104,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 375,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,0 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	98,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	1,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,8	29,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,4	23,7
sanoat	14,0	15,8
qurilish	8,4	7,9
xizmatlar	44,8	46,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,4	19,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,2
boshqa xizmat tarmoqlari	21,6	22,2



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 29,7 % ni, sanoat tarmog‘i 15,8 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 46,6 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil

1,8 %



32,8 %

Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi

14,0 %

Sanoat

8,4 %

Qurilish

44,8 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o‘rmon va
baliqchilik xo‘jaligi 29,7 %

Sanoat 15,8 %

Qurilish 7,9 %

Xizmatlar 46,6 %



1,5 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,1 f.p. (2023- yilda – 3,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,7 %), sanoatda – 108,4 % (15,8 %), qurilishda – 109,5 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 109,4 % ni (46,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,9 % (19,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,7 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (22,2 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



6,6 %

YAHM

7,3 %



5,0 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,4 %



7,7 %

Sanoat

8,4 %



2,3 %

Qurilish

9,5 %



7,9 %


Xizmatlar

9,4 %



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 125,1 % va xizmat sohasida – 114,3 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 34 759,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 29 031,1 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 74,3 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 74,6%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining koʻpayishi bilan bogʻliq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

29 031,1

74,6 %

2024- yil

34 759,4

74,3 %

